



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni..... | 7 |
| Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari..... | 11 |
| Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar..... | 15 |
| Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish..... | 18 |
| Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari..... | 21 |
| Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida..... | 25 |
| Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях..... | 29 |
| Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности..... | 33 |
| Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti..... | 37 |
| Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari..... | 42 |
| Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari..... | 46 |
| Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari..... | 52 |
| Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili..... | 56 |
| Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari..... | 61 |
| Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari..... | 67 |
| Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari..... | 71 |
| Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования..... | 75 |
| Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari..... | 78 |
| Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil..... | 83 |
| Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi..... | 87 |
| Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari..... | 91 |
| Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития..... | 96 |
| Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari..... | 101 |
| Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati..... | 106 |
| Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili..... | 111 |
| Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish... | 116 |
| Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash»..... | 120 |
| Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари..... | 126 |
| Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari..... | 130 |

| | |
|---|-----|
| Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари. | 134 |
| Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси..... | 138 |
| Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish..... | 142 |
| Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти..... | 146 |
| Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari..... | 151 |
| Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri..... | 157 |
| Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi..... | 160 |
| Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari..... | 164 |
| Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni..... | 168 |
| Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni..... | 173 |
| Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах..... | 178 |
| Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati..... | 181 |
| Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida..... | 186 |
| Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari..... | 190 |
| Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве..... | 194 |
| Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari..... | 198 |
| Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish..... | 202 |
| Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri..... | 206 |
| Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari..... | 209 |
| Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан..... | 213 |
| Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний..... | 222 |
| Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari..... | 227 |
| Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari..... | 230 |
| Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari..... | 235 |
| Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi..... | 239 |
| Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar..... | 243 |
| Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish..... | 247 |
| Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati..... | 251 |
| Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot..... | 254 |
| Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili.... | 257 |

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, «О комплексе мер по оказанию качественных социальных услуг и помощи населению, а также налаживанию системы их эффективного контроля» от 01.06.2023 г. № УП-82.
2. Указ Президента Республики Узбекистан, «Об утверждении Стратегии социальной защиты населения Республики Узбекистан» от 25.07.2022 г. № УП-175.
3. Национальное агентство социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан. Статистические данные за 2023-2025 гг. © 2025 «ИНМА»
4. Национальный комитет республики Узбекистан по статистике. Социальное развитие и уровень жизни в Узбекистане. 2023-2024 гг. info@stat.uz
4. Усманова М, Саттарова. Право социального обеспечения Республики Узбекистан. Учебник. Изд. Ташкент. ТГЮУ. 2019 г. 183 с.

UDK:338.1

**TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI
MUTANOSIBLIKNI TA’MINLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БАЛАНСА МЕЖДУ
СТРУКТУРНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ**

**CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR ENSURING THE BALANCE BETWEEN
STRUCTURAL CHANGES AND ECONOMIC GROWTH**

Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning mutanosibligini ta‘minlashning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlashda tarkibiy transformatsiyalarning o‘rni va ahamiyati nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida klassik, strukturaviy va endogen iqtisodiy o‘shish nazariyalari doirasida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarkibiy siyosatni takomillashtirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘shish, mutanosiblik, iqtisodiy rivojlanish, tarkibiy siyosat.

В статье исследуются концептуальные основы обеспечения сбалансированности между структурными изменениями и экономическим ростом. На основе теоретических подходов проанализирована роль структурных трансформаций в обеспечении устойчивого экономического роста. В рамках классических, структурных и эндогенных теорий экономического роста раскрыто влияние структурных изменений на процессы экономического развития. Полученные результаты имеют научно-практическое значение и могут быть использованы при формировании и реализации структурной политики, направленной на достижение долгосрочного устойчивого развития экономики.

Ключевые слова: структурные изменения, экономический рост, сбалансированность, экономическое развитие, структурная политика.

This article examines the conceptual foundations for ensuring the balance between structural changes and economic growth. Based on theoretical approaches, the role of structural transformations

in achieving sustainable economic growth is analyzed. Within the framework of classical, structural and endogenous growth theories, the impact of structural changes on economic development is revealed. The research findings have scientific and practical significance and can be used in the development and implementation of structural policies aimed at ensuring long-term sustainable economic development.

Keywords: structural changes, economic growth, balance, economic development, structural policy.

Iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlar bir-birini to‘ldiruvchi jarayon bo‘lib, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun nafaqat YaIMning o‘shishi, balki uning tarkibining modernizatsiya qilinishi ham muhim hisoblanadi. Buning uchun davlat siyosati mehnat unumdorligini oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi lozim. Iqtisodiy o‘shish sifat jihatdan yuqori bo‘lishi uchun iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi modernizatsiya qilinishi kerak. Tarkibiy o‘zgarishlar – iqtisodiyotning tarmoqlar bo‘yicha tuzilishidagi o‘zgarishlar bo‘lib, ular iqtisodiy samaradorlik va o‘shishni ta‘minlashga qaratilgan.

Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqligi haqida turli xil nazariyalar mavjud. Ilk iqtisodiy maktab namoyondalari merkantilistlardan Jean-Baptiste Colbert, William Petty, Antonio Serra, Thomas Mun kabi iqtisodchi olimlar tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida tadqiqotlar o‘tkazgan. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni fiziokratlardan Fransua Kene, Anney Tyurgo, Pyer Pol Merse de Marive, Viktor Rike de Mirabolar o‘rgangan. Fransua Kene “Iqtisodiy jadval” (1758) asarida iqtisodiy tizimdagi oqimlar va tarkibiy o‘zgarishlarni tahlil qilgan. Fransua Kene iqtisodiy tizimning harakatlanishi va tarkibiy o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligiga bog‘liq ekanligini ta‘kidlagan. Kene iqtisodiy o‘shish jarayonini tabiiy qonunlarga bo‘ysunuvchi doimiy oqim sifatida tushuntirgan.

Klassik iqtisodchilardan Adam Smit, David Rikardo, Karl Marks, Thomas Malthus, John Stuart Mill tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi mutanosiblik haqida nazariyalar yozishgan. Ularning fikricha, turli omillar mamlakatda tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi va bu o‘zgarishlar orqali iqtisodiy o‘shishga erishiladi.

Neoklassik iqtisodchilar Joseph Schumpeter, Arthur Lewis, Robert Solow, Paul Samuelson, Saymon Kuznets, Léon Walras, Alfred Marshallar iqtisodiyotda turli omillar ta‘sirida tarkibiy o‘zgarish yuz berishini va ularni iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liqlik jihatlarini o‘rganishgan. Joseph Schumpeter “ijodiy buzilish” (creative destruction) tushunchasi iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlarni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. U innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning doimiy ravishda qayta tuzilishiga olib kelishini ta‘kidlagan.

1-jadval

Turli iqtisodiy maktablarning iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlar haqidagi qarashlari

| Iqtisodiy maktablar | Iqtisodiy o‘shish haqidagi qarashlar | Tarkibiy o‘zgarishlarga yondashuvlar |
|---------------------|--|---|
| Merkantilizm | O‘shish – oltin va kumush zaxiralarining ko‘payishi bilan bog‘liq, tashqi savdo orqali boylik ortadi. | Iqtisodiy tuzilma asosan savdoga yo‘naltiriladi; ishlab chiqarish ikkinchi darajada. |
| Klassik maktab | O‘shish – mehnat taqsimoti, bozor mexanizmi va kapital jamg‘arilishi orqali ta‘minlanadi. | Erkin bozor sharoitida ishlab chiqarish tarkibi tabiiy ravishda takomillashadi. |
| Marksizm | O‘shish – ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi ziddiyat natijasida sodir bo‘ladi. | Tarkibiy o‘zgarishlar – ishlab chiqarish usulining almashuvi (feodalizm → kapitalizm → sotsializm). |
| Neoklassik maktab | O‘shish – kapital, mehnat va texnologiya samarali qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. | Innovatsiya va texnologik yangilanishlar strukturaviy o‘zgarishlarning asosiy manbai. |

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

| | | |
|----------------------------|---|--|
| Keynschilik | O‘shish – davlatning investitsiya va talabni rag‘batlantiruvchi siyosati orqali ta‘minlanadi. | Davlat aralashuvi orqali iqtisodiyot tarmoqlari qayta tashkil etiladi. |
| Institutsionalizm | O‘shish – samarali institutlar va huquqiy tartibotlar orqali barqaror ta‘minlanadi. | Tarkibiy o‘zgarishlar – yangi institutlarning shakllanishi va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq. |
| Endogen o‘shish nazariyasi | O‘shish – inson kapitali, bilim va innovatsiyalarning ichki manbalari hisobiga yuzaga keladi. | Tarkibiy o‘zgarishlar – texnologik yangiliklar va ta‘lim sohasiga investitsiyalar orqali tezlashadi. |
| Rivojlanish nazariyalari | O‘shish – “bosqichma-bosqich” (an‘anaviy jamiyatdan yuqori massaviy iste‘molgacha) jarayon sifatida izohlanadi. | Tarkibiy o‘zgarishlar – sanoatlashuv, urbanizatsiya va xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi orqali amalga oshadi. |

MDH iqtisodchilari orasida iqtisodiy o‘shish masalasi doimiy tadqiq etilgan. Ularning qarashlari asosan sobiq SSSR iqtisodiy tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish tajribasi, o‘shish modellari va modernizatsiya jarayonlariga asoslangan. Abalkin Leonid Ivanovich bozor iqtisodiyotiga o‘tishda iqtisodiy o‘shishni modernizatsiya va strukturaviy islohotlar orqali erishish kerakligini ta‘kidlagan[1]. Iqtisodiy o‘shishni “ijtimoiy samaradorlik” va “ishlab chiqarish samaradorligi” bilan bog‘lagan[2]. Aganbegyan Abel Gezevich O‘shishning asosiy omillari sifatida innovatsiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va inson kapitalini ko‘rsatgan. Iqtisodiy o‘shish faqat resurslarni ko‘paytirish emas, balki sifat jihatidan yangilanish orqali bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Qozog‘iston iqtisodchilari J. Nazarov, U. Shokanov – iqtisodiy o‘shishni tabiiy resurslardan samarali foydalanish va diversifikatsiya orqali ta‘minlash haqida tadqiqot olib borgan.

O‘zbekistonlik olimlardan A. Vaxabov iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotni chuqur isloh qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun investitsiyalar muhim ahamiyatga egaligini o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rsatib bergan[3][4]. X. Abulqosimov iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash innovatsiyalarni joriy etish va texnologik yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash zarurligini qayd etadi. Rasmiy va norasmiy iqtisodiyot sektorlarini tahlil qilish orqali xufiyona iqtisodiyotning iqtisodiy o‘shishga salbiy ta‘sirini kamaytirish lozimligini ko‘rsatadi[5][6]. Q. Q. Mambetjanovning tadqiqotlariga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik iqtisodiy nazariyada markaziy o‘rin tutadi. U Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi tarmoqlararo nisbatlarni va ishlab chiqarish strukturasiidagi diversifikatsiyani iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, Mambetjanov YaIM tarkibida yangi turdagi tovar va xizmatlar ulushi ortishi bilan iqtisodiyotning barqaror o‘shish sur‘atlari mustahkamlanishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘shish mexanizmini ikki yo‘nalishda rag‘batlantiradi: birinchidan, ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblikni tiklash orqali resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi; ikkinchidan, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun kompleks strategiyalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish muhimligi qayd etiladi[7].

2-jadval

Zamonaviy o‘zbek olimlarining iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarish haqidagi qarashlari

| Olimlar | Iqtisodiy o‘shish haqidagi fikrlar | Tarkibiy o‘zgarish haqidagi fikrlar |
|----------------|---|--|
| A. Vaxabov | Investitsiyalar – iqtisodiy o‘shishning eng muhim manbai. | Investitsiyalar orqali iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar yuz beradi. |
| X. Abulqosimov | Innovatsiyalarni joriy etish va texnologik yangilanishlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. | Rasmiy va norasmiy sektorni tahlil qilish orqali xufiyona iqtisodiyot ta‘sirini kamaytirish kerak. |
| Q. Mambetjanov | YIM tarkibi va harakat shakllari o‘shishni rag‘batlantiradi. | Tarmoqlar o‘rtasidagi balansni ta‘minlash muhim. |

| | | |
|-----------------|---|---|
| Sh. Xajibakiyev | Barqaror iqtisodiy o‘shish uchun moliyaviy barqarorlik zarur. | Moliyaviy sektorni diversifikatsiya qilish tarkibiy islohotlarning asosiy yo‘nalishi. |
| N. Muminov | Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish o‘shishning zamonaviy yo‘li. | Innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish strukturaviy o‘zgarishlarni belgilaydi. |

Iqtisodiy o‘shishning sifatini, barqarorligini va tarmoqlararo muvozanatini aniqlash uchun biz tarkibiy o‘zgarishlarni baholashimiz kerak. Iqtisodiy tahlilda strukturaviy o‘zgarishlarni miqdoriy jihatdan baholash muhim ahamiyatga ega. 1-jadvalda keltirilgan usullar hozirgi kunda iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni o‘lchashning eng ko‘p qo‘llaniladigan nazariy va amaliy yondashuvlarini aks ettiradi.

Iqtisodiyotdagi tarmoqlar ulushining qancha o‘zgarganini Strukturaviy o‘zgarish indeksi (Structural Change Index — SCI) orqali o‘lchanadi.

$$SCI = \frac{1}{2} \sum_{i=1}^n |s_{i,t} - s_{i,0}|$$

Bu yerda:

$s_{i,t}$ — tarmoq i ning umumiy bandlik yoki YAIMdagi ulushi t -vaqtda;

$s_{i,0}$ — tarmoq i ning boshlang‘ich davrdagi ulushi.

Agar sanoat ulushi 30% dan 25% ga, xizmatlar sohasi 40% dan 50% ga o‘ssa, umumiy SCI = 0.075 bo‘ladi — bu o‘rtacha transformatsiya darajasi sifatida baholanadi. Qiymat oraligi: 0 dan 1 gacha. 0 — o‘zgarish yo‘q; 1 — to‘liq o‘zgarish.[8]

Tarmoqlar o‘rtasidagi nomutanosiblik yoki “strukturaviy tafovut” darajasini Theil indeksi (strukturaviy nomutanosiblik darajasi) orqali o‘lchanadi.

$$T = \sum_{i=1}^n s_i \ln\left(\frac{s_i}{y_i}\right)$$


s_i — tarmoqning umumiy bandlikdagi ulushi,

y_i — tarmoqning YAIMdagi ulushi.

Theil indeksi qanchalik katta bo‘lsa, iqtisodiyot shunchalik nomutanosib hisoblanadi.[9]

Tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini empirik baholash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 2010 va 2023-yillar kesimida yalpi ichki mahsulot tarkibidagi tarmoqlar ulushi asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Tahlilda iqtisodiyot uchta asosiy sektor — qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar sohasi bo‘yicha ko‘rib chiqildi.

2010-yilda YAIM tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 26,9 foizni, sanoatning ulushi 21,2 foizni, xizmatlar sohasining ulushi esa 39,9 foizni tashkil etgan. 2023-yilga kelib ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 21,2 foiz, 33,1 foiz va 45,7 foizga teng bo‘ldi. (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekiston YaIMning tarkibi va iqtisodiy o‘shish dinamikasi (1995-2025).

Mazkur ma’lumotlar iqtisodiyotda sanoat ulushining oshib, qishloq xo’jaligi ulushining kamayganini ko’rsatadi. Tarkibiy siljishlar darajasini aniqlash uchun strukturaviy o’zgarish indeksi (Structural Change Index — SCI) hisoblandi:

$$SCI = \frac{1}{2} (|21,2 - 26,9| + |33,1 - 21,0| + |45,7 - 39,9|) \quad SCI = \frac{1}{2} (5,7 + 12,1 + 5,8) = 11,8 \%$$

Hisob-kitob natijasiga ko’ra, 2010–2023-yillar oralig’ida YAİM tarkibida 11,8 foizlik (qiymat 0.1) strukturaviy siljish yuz bergan. Bu ko’rsatkich iqtisodiyotda o’rtacha darajadagi, ammo barqaror tarkibiy transformatsiya amalga oshirilganini anglatadi.

O’lchov natijalari shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy o’sishning barqarorligi nafaqat umumiy YAİM hajmiga, balki o’sishning tarkibiy sifatiga ham bog’liq. Agar o’sish asosan resurslarning samarali qayta taqsimlanishidan kelib chiqsa, u holda bu jarayon uzoq muddatda barqaror natija beradi. Aksincha, o’sish faqat narxlarning o’sishi yoki xomashyo eksportiga tayanayotgan bo’lsa, strukturaviy o’sishning ichki asosi zaif bo’ladi. Tarkibiy o’zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarining ulushi va resurslarning taqsimoti vaqt o’tishi bilan o’zgarishini ifodalaydi. Ushbu jarayon iqtisodiy o’sishning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, tarkibiy o’zgarishlar iqtisodiyotning har bir bosqichida asosiy drayver sektor va mehnat resurslarining oqimini belgilaydi, natijada YAİM o’sishi va iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarkibiy o’zgarishlar va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi bog’liqlik haqidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ishlab chiqarish tuzilmasining sifat jihatdan o’zgarishi — o’sishning ajralmas tarkibiy omilidir. Klassik iqtisodchilar (A. Smit, D. Rikardo) ishlab chiqarishning tabiiy resurslar va mehnat unumdorligiga tayanishini asoslab bergan bo’lsalar, keyingi bosqichda neoklassik va keynsiy yondashuvlar kapital jamg’arilishi, texnologik taraqqiyot va davlat aralashuvining rolini chuqur tahlil qildi. Zamonaviy nazariy yondashuvlarda esa tarkibiy o’zgarishlar nafaqat iqtisodiy o’sishning natijasi, balki innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sektorining kengayishi va global qiymat zanjirlariga integratsiya orqali o’sishni tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Tarkibiy o’zgarishlar va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi bog’liqlik mustahkam va uzviydir. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun strukturaviy transformatsiyalar, sektorlar diversifikatsiyasi va texnologik modernizatsiya alohida ahamiyatga ega. Shu asosda, mamlakatlar iqtisodiy siyosatini shakllantirishda tarkibiy o’zgarishlarga e’tibor berish muhimligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Л. И. Абалкин. Выбор за Россией. — М.: Республика, 1998. — 334 с.
2. Л. И. Абалкин. Логика экономического роста. — М.: Институт экономики РАН, 2002. — 215 с.
3. A. Vaxabov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – B. 25.
4. A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, N. Muminov. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda investitsiyalarning o’rni. – Toshkent: TDIU konferensiya materiallari, 2012. – B. 48
5. H.P. Abulqosimov, A.A. Mamatov, S.A. Mamatov, S.Sh. Saidgazieva. Iqtisodiy xavfsizlik. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Akademiya, 2006.
6. H.P. Abulqosimov, N.G. Muminov. Xufyona iqtisodiyot: o’quv qo’llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2020.
7. Q.Q. Mambetjanov. Yalpi ichki mahsulot tarkibiy qismlari va harakat shakllarining amal qilish qonuniyatlari. – Ilmiy jurnal: Moliya, 2018, №1, 40–45-betlar.
8. J. Krüger. Productivity and Structural Change: A Review of the Literature. *Journal of Economic Surveys*, 22(2), 330–363 (2008); S. Fabricant. *Employment in Manufacturing, 1899–1939*. NBER, New York (1942).
9. H. Theil. *Economics and Information Theory*. North-Holland Publishing Company (1967).